
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2022 YILNING I-CHORAGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Joriy yil 1-choragi davomida barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami **319ta** (537ta) murojatlar shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **160ta** (134 ta) hamda Halq qabulxonasi elektron tizimi orqali 72ta (97ta), shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **87ta** (306ta) yozma murojaatlar kelib tushgan.

(Bu ko'rsatgich 2021 yil davrga nisbatan, 537 tani tashkil etib, 218 taga yoki 40,6% kamaygan)

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Moddiy yordam ajratish **72 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **54 ta**, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish masalasida **73 ta**, Obodonlashtirish masalasida **18 ta**, Yo'llarni ta'mirlash masalasida **30 ta**, Qishloq xo'jaligi sohasida **20 ta**, Kredit olish masalasida **5 ta**, Uy-joylarni ta'mirlash masalasida **10 ta**, Ishga joylashtirish masalasida **6 ta**, Raxbarlar faoliyati masalasida **3 ta**, Oilaviy munosabatlar masalasida **2 ta**, Elektr ta'minoti masalasida **2 ta**, Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish masalasida **5 ta**, Ichimlik suvi masalasida **4 ta**, Gaz tarmoqlari masalasida **2 ta**, Kontrakt to'lovi masalasida **1 ta**, Xalq ta'limi masalasida **3 ta** hamda turli masalalarda **9 ta** murojaat qayd etilgan.

Shuningdek, mazkur murojaatlarning **92 tasi** (30%) ijobiy hal etilgan, **201 ta** (62%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan, **2 ta** (0,6%) murojaat tegishiligi bo'yicha yuborilgan, **24 ta** (7,4%) murojaat o'rganish jarayonida.

Eng ko'p murojaatlar shaharning Ziynat **39ta** (12,2%), Yoshlik **23 ta** (7,2%), Bog'bon **27 ta** (8,5%), Do'stlik **17 ta** (5,3%), Pakana va Qo'chqorchi MFYlarda **16 tadan** (5,0%), Valik **15 ta** (4,7%), Kokilon **14 ta** (4,4%), X.Olimjon va Guliston MFYlarda **13 tadan** (4,1%), Polmon **12 ta** (3,8%) mahalla fuqarolar yig'inlariga to'g'ri kelmoqda.

Murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, bundan tashqari murojaatlar sonini kamaytirish hamda aholini rozi qilish maqsadida tasdiqlangan jadval asosida shahar hokimi hamda hokim o'rinbosarlari tomonidan shahar xududlarida ommaviy-sayyor hamda shaxsiy qabullar tashkil etib borilmoqda.

Xususan, shahar hokimi hamda o'rinbosarlar tomonidan jami **72 marotaba** qabullar tashkil etilib, qabullar davomida jami **436 nafar** fuqarolar murojaatlari qayd etildi. Shuningdek, qayd etilgan murojaatlarning **216 tasi** yoki **49, 5 foizi** ijobiy hal etishga erishildi.

2022-04-15 12:22:23